

«KITOBI DADAM QO‘RQUT»NING FOLKLORSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

**Ataxanova Venera Radjapovna,
UrDU, O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi katta o‘qituvchisi**

Turkiy xalqlar folklori juda qadimiy, boy va rang–barang bo‘lib, o‘rta asrlardan boshlab ularning ayrim namunalari yozuvga ko‘chirilgan. Shulardan bittasi «O‘g‘uz qabilalari tilida bitilgan «Kitobi dadam Qo‘rqut» eposi turkiy xalqlarning o‘rta asrlarda yaratilgan yagona yozma yodgorligi hisoblanadi» [1.519]. Kitobning to‘la nomi «Kitobi dadam Qo‘rqut ila lisoni toifai o‘g‘uzon» deb nomlanadi. Ushbu madaniy yodgorlikni afkor ommaga tanitishda dastlab nemis sharqshunoslari asosiy rolni o‘ynaganlar.

1815-yildan Dits, 1859 yildan Teodor Neldeke ushbu kitobning tarjimai va tadqiqi bilan mashg‘ul bo‘lishdi. Keyinchalik T.Neldeke 1892-yilda o‘z materiallarini o‘sha paytlarda talabalik yillarini kechirayotgan V.V.Bartoldga taqdim qiladi [1.519]. V.V.Bartold o‘sha paytlardan boshlab «Kitobi dadam Qo‘rqut»ni tarjima qilishga kirishadi. Oxir-oqibat kitob tarjimai 1962-yilda to‘laligicha nihoyasiga etkazilib, rus tilida nashr qilinadi [2.136]. Kitob ushbu nashrdan oldin 1916-, 1994-, 2019-yillarda Turkiyada, 1939-yilda Ozarbayjonda chop etilgan edi. «Kitobi dadam Qo‘rqut» 1990-yilda Ashxobodda bosilib chiqdi. Bu nashrga turkman folklorshunoslari tomonidan to‘plangan Qo‘rqut ota haqidagi o‘nta rivoyat ham ilova etilgan. 1986 yilda kitob qozoq tilida Olmaotada chop etilgan. SHuningdek, kitob o‘zbek tiliga ham tarjima etildi [3.].

«Kitobi dadam Qo‘rqut» asari 12 qo‘shiqdan (kitobning o‘zida bo‘limlar «Bo‘y» nomi ostida berilgan. Bu so‘z o‘g‘uz shevasidaqism, bo‘lak ma‘nolarini anglatadi) tashkil topgan bo‘lib, V.V.Bartoldning «Turetskiy epos i Kavkaz» maqolasida ta’kidlanishicha, asarning beshinchi va oltinchi qismlari o‘z mazmuniga ko‘ra boshqa shoxobchalari bilan bog‘lanmaydi. Qolgano‘nta shoxobcha esa turkumlik xarakteriga ega bo‘lib, Bayondurxon nomi bilan bog‘lanadi [4.110]. SHunday qilib, V.V.Bartold tomonidan boshlangan ish folklorshunoslikda keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borilishiga yo‘l ochdi. «Kitobi dadam Qo‘rqut» asarini rus tiliga tarjima qilib, uning shuhratini butun dunyoga tanitgan olim V.V.Bartold bo‘lib, u o‘zining «Turetskiy epos i Kavkaz» maqolasida bu noyob merosga olim batafsil to‘xtaladi. Asardagi ayrim motivlarni «Go‘ro‘g‘li» eposi bilan taqqoslab, ko‘plab o‘zaro yaqinlik mavjud ekanligini e’tirof etadi. V.V.Bartold o‘z maqolasida

«Kitobi dadam Qo‘rqut»ning o‘n ikki shoxobchasiga to‘la xarakteristika berib, ulardagi motivlarni G‘arb va SHarq folklori bilan taqqoslaydi. V.V.Bartold mazkur maqolasida Qo‘rqut ota shaxsi bilan bog‘liq ko‘plab dalillarni keltiradiki, ushbu masala tadqiqotning qimmatini yanada oshiradi. Uning ta‘kidlashicha, XV asrning II yarmida yashagan turk sultoni Boyazid II ning o‘g‘li shahzoda Qo‘rqut she‘riyat va musiqaga ishqiboz bo‘lgan va o‘zi ham she‘rlar yozib, musiqa chalishda nom qozongan. Ushbu tarixiy shaxs «Kitobi dadam Qo‘rqut» asarining paydo bo‘lishida asosiy rol ni o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Chunki kitobning shakllanishi ham o‘sha davrga borib bog‘lanadi [4.120]. Albatta bu masala ancha bahstlabdir. Chunki, asardagi Qo‘rqut ota to‘laligicha epik qahramon sifatida o‘zini namoyon qiladi.

Ushbu o‘g‘uz eposi yodgorligi haqida A.Y.Yakubovskiyning ma‘ruza tezisida ham ayrim fikrlar bildirilgan. Uning fikriga qaraganda, Qo‘rqut otaning tarixiy shaxs bo‘lganligi haqiqatga ancha yaqin. Sharqshunos olim bu borada K.Inostransevning Qo‘rqut ota obrazi XII asrda yashab, 12 o‘g‘uz qabilasi birlashmasi dohiysi Qo‘rqut Ibn Abdul Hamid shaxsi bilan aloqador degan fikriga qo‘shiladi. Shuningdek, sharqshunos olim ushbu ishida «Alpomish» dostonidagi motivlarning «Kitobi dadam Qo‘rqut»dagi Bomsil Bayrak bilan bog‘liq motivlarga o‘xshashligini ta‘kidlab, bu hodisa o‘zaro ta‘sir, aloqa natijasi emas, balki o‘xshash hayot tarzi keltirib chiqargan tipologik voqealar natijasidir, degan to‘g‘ri xulosaga keladi.

A.Y.Yakubovskiyning ushbu ishda ilgari surgan yana bir g‘oyasi shuki, «Kitobi dadam Qo‘rqut»dagi voqealar XII-XV asrlarnigina emas, balki islomgacha bo‘lgan davr voqealaridan ham anchasini o‘z tarkibiga qamrab olgan [5.130].

Qo‘rqut ota bilan aloqador rivoyatlarga qiziqish, ularni to‘plash va tahlil qilish A.N.Samoylovich tadqiqotlarida ko‘plab uchraydi. U Turkmaniston orqali Xorazmga sayohat qilganida Qo‘rqut ota haqida anchagina materiallar to‘playdi. Bu borada uning «Qo‘rqut ota haqida afsona va Go‘ro‘g‘li» deb nomlangan tadqiqoti xarakterlidir. Unda olim Qo‘rqut ota haqidagi afsonalarning Go‘ro‘g‘li eposidagi ayrim lavhalarga mos kelishini, hatto obrazlarning ismlari bir – biriga aynan uyqashligini qayd qilib o‘tadi [6.].

«Kitobi dadam Qo‘rqut» asari bo‘yicha V.V.Bartold, A.N.Samoylovich va A.Y.Yakubovskiy qatorida mukammal tadqiqot olib borgan olim V.M.Jirmunskiydir. Uning «Oguzskiy geroicheskiy epos i «Kniga Korkuta» nomli maqolasi alohida diqqatga sazovordir [7.631]. Tadqiqot «kirish» va «xulosa» bilan birgalikda X qismdan iboratdir. Ishning «kirish»qismida olim «Kitobi dadam Qo‘rqut» asarining topilishi, tadqiqotchilari haqida so‘z yuritib, shu narsalarni ta‘kidlaydiki, asarning bitta nusxasi Drezden kutubxonasidan topilib, 1815-yilda uni

nemis sharqshunosi Dits fan olamiga olib chiqadi, shu tariqa asardagi motivlardan aka – uka Grimmlar xabar topib, undagi xalqaro sayyor sujetlarga e'tibor qaratishadi. Keyinchalik T.Neldeke, V.V.Bartoldlar bu ishni davom ettirishadi.

V.M.Jirmunskiyning ko'rsatishicha, Drezden kutubxonasidan topilgan mazkur nusxa mukammal bo'lmagan. Asarning yana bir eng to'liq nusxasi 1950-yilda italyan sharqshunosi Ettore Rossi tomonidan Vatikan kutubxonasidan qo'lga kiritilgan. Uning nomi «Rasskaz Oguzname o Kazan-beke i drugix» deb atalgan. Ikkita nusxa asosida tayyorlangan «Kitobi dadam Qo'rqu»ning nemis tilidagi mukammal nashri 1958-yilda chop etilgan.V.M.Jirmunskiy tadqiqotining ushbu qismida asarning Hamid Orasli va M.Taxmasib tomonidan tayyorlanib, 1950-yilda chop etilgan ozarbayjoncha nashri, turk olimlari Abdulqodir Inon, Ali Rizo YAlman, Fuod Ko'pirulu, Partav Noili Boratavlarning tadqiqotlari va 1916-yilda Istanbulda Kilisli Muallim Rif'at tomonidan amalga oshirilgan turk tilidagi nashr haqida so'z yuritadi. Shu bilan birga Muharram Ergin tomonidan 1958-yilda chop etilgan turkcha nusxaning eng mukammal amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tadi.

Olimning alohida ko'rsatishicha, turkiy epos ushbu yodgorlikda kitobni ko'chirgan muallif tomonidan ko'pgina adabiy qayta ishlovlarga uchragan. Har bir shoxobcha boshida va oxirida Qo'rqu otaga navbat berilishi uning bir ko'rinishidir. Shuningdek ko'chiruvchi adabiy asarning turli joylarida o'sha davr voqealariga, urf-odatlariga nasriy matnlar vositasida izoh berib o'tgan. o'z navbatida matnni ko'chiruvchi adib eposning qadimiy an'alariga xos xususiyatlarni ham saqlay olgan.

«Kitobi dadam Qo'rqu» asarini ilmiy tadqiqot doirasiga tortgan yana bir olim X.G.Ko'ro'g'lidir. U o'zining «O'g'uz eposi» (qiyosiy tahlil) maqolasida XV asro'g'uz yodnomasi bilan turkiy xalqlarga mansub dostonlardagi motivlarni qiyoslab, tegishli xulosalarni bayon qiladi [8.81]. Olimning ta'kidlashicha, ushbu tadqiqotdan asosiy maqsad o'g'uz eposidagi umumiylik xususiyatlarini yoritish, asosan «Alpomish» sujetining tarqalish doirasiga tavsif berish, bu borada tipologik xususiyatlarga e'tiborni tortishdir. Muallif maqolada «Kitobi dadam Qo'rqu», «Shohnoma» va «Odiseya» asarlarini tahlil qilishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

O'g'uz eposning tarixiy ildizlariga nazar tashlar ekan, muallif dastlab o'g'uz qabilalarining asosiy yurti bo'lgan Turkiston hududida shakllangan mif va afsonalarga e'tibor qaratadi. Maqola muallifi «Alpomish» sujetining Sibir, Qozog'iston, Volga bo'yi, O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar eposida keng tarqalganligini bayon qilib, undagi farzandsizlik motivini «Alpomish», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Tohir va Zuhra», «Huriliqo va Hamro» dostonlari bilan «Kitobi dadam Qo'rqu» asarini qiyoslagan holda tahlilga tortadi.

«Alpomish» dostoni bilan «Kitobi dadam Qo‘rqut»dagi «Bomsı Bayrak» rivoyatiga aloqador ushbu motivning «Yusuf va Ahmad», «Oshiq G‘arib va Shohsanam» dostonlarida ayrim o‘zgarishlarga uchragan holda qayta jonlanishi hodisasini X.G.Ko‘ro‘g‘li dostonlardagi har bir detalga e‘tibor bergan holda tahlil etadi.

Turk folklorshunosligida ko‘plab tadqiqotlar yaratilganligini V.M.Jirmunskiyning ilmiy ishlarini tahlil qilish jarayonida aytib o‘tdik. Turklardan keyin bu mumtoz merosni keng tadqiqqilgan olimlar Ozarbayjon bilan bog‘lanadi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab «Kitobi dadam Qo‘rqut» asariga qiziqish qoraqalpoq folklorshunosligida ayniqsa yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Bu masala Q.Maqqsetovning ishlarida ilk marta o‘z ifodasini topdi. U o‘zining qator tadqiqotlarida «Kitobi dadam Qo‘rqut» asarining qoraqalpoq eposiga sezilarli ta‘siri borligini ta‘kidlaydi [10.137]. Keyingi yillarda S.Bahodirova ushbu mumtoz meros bilan qoraqalpoq dostonlaridagi motivlarni qiyosiy o‘rganib, Bomsı Bayrak rivoyatidagi Bonu Chechak haqidagi tafsilotlarning «Qirqqiz» dostonidagi Guloyim obraziga mos kelishini ko‘rsatib o‘tadi [11.14]. K.Allamberganov esa «Edige» dostoni haqida tadqiqot olib borib, dostondagi anchagina epizodlarning ildizlari «Kitobi dadam Qo‘rqut» asaridagi voqealarga ancha yaqin kelishini ta‘kidlab ko‘rsatadi [12.48].

Mustaqillik yillariga kelib qoraqalpoq folklorshunosligida ushbu mavzu nomzodlik ishi sifatida tadqiqot doirasiga tortildi.«Kitobi dadam Qo‘rqut va qoraqalpoq folklori»deb nomlangan ushbu nomzodlik dissertatsiyasida qadimgi o‘g‘uz eposi bilan qoraqalpoq dostonlari: «Alpomish», «Edige», «Maspasha», «Yusuf va Ahmad», «G‘arib oshiq» kabi epos namunalari qiyosiy tarzda o‘rganiladi. Motiv va sujetlardagi, obrazlar va badiiy tasvir vositalaridagi o‘xshashlik hamda alohidalik xususiyatlari tahlil etiladi [13.].

Turkiy xalqlar folklorshunosligida «Kitobi dadam Qo‘rqut» asariga oid tadqiqotlarning qisqacha tavsifidan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, qardosh xalqlar folklorshunos olimlari qadimgi epos bo‘yicha ancha salmoqli tadqiqotlarni yaratishga muvaffaq bo‘lishgan.

O‘zbek folklorshunosligida mumtoz o‘g‘uz yodnomasi borasida maxsus tadqiqot yaratilmadi. Shu jihatdan olganda bizning nomzodlik ishimiz ilk monografik tadqiqotlardan bo‘lib, mazkur sohadagi ilmiy – tadqiqot ishlarini umumlashtiradi va o‘g‘uz eposi yodnomasi bilan Xorazm dostonlari o‘rtasidagi aloqadorlik masalasida muayyan xulosalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jirmunskiy V.M. Tyurkskiy geroicheskiy epos. – L.: Nauka, 1974. – S.519.

2. Kniga moego deda Korkuta. Izdanie podgotovili: V.M.Jirmunskiy, A.N.Kononov. – M.-L.: Nauka, 1962.
3. Kitobi dadam Qo‘rqut. S.R.Ro‘zimboev tarjiması. Nashrga tayyorlovchilar: M.Pirnazarova, N.Sobirova. – Urganch: UrDU nashriyoti, 2019.
4. Bartold V.V. Turetskiy epos i Kavkaz // Kniga moego deda Korkuta. – M.-L.: Nauka, 1962. – S.110.
5. YAkubovskiy A.YU. «Kitabi Korkud» i ego znachenie // Kniga moego deda Korkuta. –M.-L.: Nauka, 1962. – S.121-130.
6. Zapiski vostochnogo otdeleniya russkogo arxeologicheskogo obshchestva. T.XIX. – SPb., 1910. – S.IV-V.
7. Jirmunskiy V.M. Tyurkskiy geroicheskiy epos. – L.: Nauka, 1974. – S.517-631.
8. Korogly X.G. Oguzskiy epos (sravnitelnyy analiz) // Tipologiya narodnogoeposa.– M.: Nauka, 1975. – S.64-81.
9. Korogly X.G. Vzaimosvyazi epasa narodov Sredney Azii, Irana i Azerbaydjana. - M.: Nauka, 1989.
10. Maqsetov Q. Qaraqalpaq qaharmanlyq dastanlary poetikası. – Toshkent: Fan, 1965. – B.136-137.
11. Bahadyrova S. «Kitabi dedem Qorqyt», «Qoblan», «Edige» ham hozirgi adabiyot haqqında oylar. – Nokis: «Qaraqalpaqstan», 1992. – B.13-14.
12. Allambergenov K. «Qorqyt ata kitobi» ham Qaraqalpaq qaharamanlyq dastanlary // Qaraqalpaq mug‘allımy. – Nukus, 1994. – №2-4. – B.39-48.
13. Palimbetov K.S. «Kitabi dedem Qorqyt» jazba esteligi ham «Məspatsha» dəstanı haqqında (sujet ham obraz baylanısları) // Vestnik KKO AN RUz. – Nukus, 1995. – №1; Shu muallif. Qorqyt ata ham ol tuo‘ralı qaraqalpaq rəo‘ayatlary // Əmio‘dərya. – Nəkis, 1995. – №10-12; Shu muallif. Qorqyt ata hayal-qızlar haqqında // Aral qızlary. – Nəkis, 1995. – №2-4; Shu muallif. «Qorqyt ata kitaby» ham «Yusup-Axmet» dəstanı haqqında (sujet ham obraz baylanısları) // Vestnik KKO AN RUz. – Nukus, 1996. – №4; Shu muallif. «Kniga deda Korkuta» i Karakalpakskiy folklor. AKD. – Nukus, 1997. – 23 s.; Shu muallif. «Qorqyt ata kitaby» ham qaraqalpaq dəstanlary (monografiya). – Nəkis: «Bilim», 2010.